

8-SINF. JAHON TARIXI
CHSB-1

I variant

Sana: _____

Sinf _____

O'quvchining F.I.SH. _____

1. O'rxon haqida bildirilgan to'g'ri ma'lumotni belgilang. (Bilish–2,5 ball)

- A) Usmon beyligining hukmdori bo'lgan
- B) Nikeya va Nikomediya shaharlarini bosib olgan
- C) Ilk bor yanichar qo'shinini tuzgan
- D) Konstantinopolni qamal qilishi Yevropani sarosimaga solgan

2. Yuz yillik urushga olib kelgan sabablardan birini aniqlang. (Bilish–2,5 ball)

- A) Angliya va Fransiyaning Flandriya masalasida kelisha olmaganligi
- B) Jakeriya qo'zg'olonida inglizlarning isyonchilarga yordam berishi
- C) Janna D'Arkning burgundlar tomonidan asir olinganligi
- D) Kapetinglar sulolasining dunyoni egallash da'vosi bilan chiqishi

3. Quyidagi sulolalardan qaysi biri Germaniyada hukmronlik qilgan? (Bilish–2,5 ball)

- A) ryurikovlar B) styuartlar C) tyudorlar D) lyuksemburglar

4. Quyidagilardan “Kulikova jangi”ga oid ma'lumotlarni aniqlang. (Qo'llash – 4,5 ball)

- 1) Ruslar va mo'g'ul askarlari o'rtasida sodir bo'lgan;
- 2) Nemis ritsarlari va ruslar o'rtasida sodir bo'lgan;
- 3) Jangdagi g'alaba natijasida Dmitriy Ivanovich “Donskiy” deb ataladigan bo'ldi;
- 4) Aleksandr Nevskiyning jang taktikasi va strategik mahorati ruslar g'alabasini ta'minlagan;
- 5) Don daryosi bo'yida bo'lib o'tgan;
- 6) Chud ko'li ustida bo'lib o'tgan.

- A) 1, 3, 4 B) 2, 4, 6 C) 1, 3, 5 D) 2, 3, 6

5. Mavzu yuzasidan olgan bilimlaringizga tayanib quyidagi fikrlarga “ha” yoki “yo'q” deb javob bering. (Qo'llash – 4,5 ball)

№	Mulohaza uchun ma'lumot	Ha	Yo'q
1	Navarra iqtisodiy qoloq davlat hisoblanganligi bois XIII–XV asrlarda Pireney yarimorolida katta ta'sirga ega bo'lgan		
2	Yevropadagi ilk toifa vakillarining yig'ini Navarrada vujudga kelgan va kortes deb atalgan		
3	Granada amirligi Yevropadagi so'nggi arab davlati hisoblangan		
4	Kastiliyada qirol markazlashgan hokimiyat uchun boshqa Yevropa mamlakatlaridagi kabi zodagonlarga qarshi kurash olib borgan		

- A) 1-yo'q, 2-yo'q, 3-ha, 4-ha B) 1-ha, 2-yo'q, 3-yo'q, 4-ha
- C) 1-yo'q, 2-ha, 3-ha, 4-yo'q D) 1-ha, 2-ha, 3-yo'q, 4-yo'q

6. Fransiya qirollarini ularga xos ma'lumotlar asosida moslashtiring. (Qo'llash – 4,5 ball)

- 1. Gugo Kapet; 2. Lyudovik VI; 3. Filipp IV; 4. Karl V.
- a) Fransiyalik arxiyepiskopni Kliment V nomi bilan yangi papa etib saylanishiga erishdi;
- b) Kapetinglar sulolasining dastlabki vakili hisoblanadi;
- c) 1360-yilda inglizlar bilan sulh imzoladi;
- d) Akvitaniyani ma'lum muddat o'ziga qaram qildi.

- A) 1-a, 2-d, 3-c, 4-b B) 1-a, 2-b, 3-d, 4-c
C) 1-b 2-d, 3-a, 4-c D) 1-c, 2-a, 3-d, 4-b

7. Tarixiy-mantiqiy ketma-ketlik (moslik) to‘g‘ri berilgan javobni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

- A) Italiya – Jakeriya qo‘zg‘oloni – Bove viloyatida boshlangan
B) Fransiya – Uot Tayler qo‘zg‘oloni – Sena, Marna, Il de Frans, Shampän viloyatlariga tarqalgan
C) Angliya – Buyuk ozodlik xartiyasi – 1 akr yer uchun 4 pens miqdorida ijara haqi belgilash ko‘zda tutilgan
D) Kastiliya – “Huquqning yetti bo‘limi” – Rim huquqi asos qilib olingan

8. Davlatlar va unga oid ma‘lumotlar mos berilgan javoblarni belgilang. (Qo‘llash – 4,5 ball)

№	Davlat	Ma‘lumot
1.	Venetsiya Respublikasi	Rim papalari o‘zlarining cheksiz boyliklarini ushbu davlat banklarida saqlashardi
2.	Florensiya Respublikasi	Oltin dukatlari Yevropada pul muomalasining rivojlanishiga katta ta‘sir ko‘rsatdi
3.	Genuya Respublikasi	Davlat floti asrlar davomida respublikaning boyligi va qudratida asosiy rol o‘ynagan
4.	Kastiliya qirolligi	Yevropadagi ilk toifa vakillarining yig‘ini (kortes) vujudga kelgan

- A) 2, 3 B) 1, 2 C) 3, 4 D) 1, 4

9. Ikkinchi Bolgariya podsholigi (a) va Vengriya davlatining (b) o‘rta asrlar tarixiga xos bo‘lgan ma‘lumotlarni toping. (Qo‘llash – 4,5 ball)

1. Davlatni Nemanya sulolasi vakillari idora etardi;
2. Asen Vizantiyaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarib, uning birinchi hukmdori bo‘ldi;
3. Pan qirolidan olgan yorlig‘iga ko‘ra erkin dehqonni sud qilish huquqiga ega edi;
4. Katta-katta hududlar va viloyatlarni ishpan deb ataluvchi mansabdorlar idora qilgan.

- A) a-1, b-3 B) a-2, b-4 C) a-3, b-4 D) a-1, b-2

10. Quyidagi ma‘lumotlarni tahlil qilib, yakuniy xulosasi to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini toping. (Mulohaza –5,5 ball)

	Voqea	Natija
1	Afonso Enrikesht Portugaliyaning mustaqilligini e‘lon qildi	Afonso Enrikesht Portugaliyaning birinchi qiroli bo‘ldi
2	Venetsiya respublikasi Genuya flotini tamomila mag‘lub qildi	Genuyaliklarning O‘rta dengiz sharqiy qismidagi siyosiy va iqtisodiy hukmronligi boshlandi
3	Navbatdagi cherkov yig‘ilishida Martin V yangi papa sifatida saylandi (1418-yil)	Papalarning “buyuk bo‘linish”iga barham berildi

- A) 1-to‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri
B) 1-to‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
C) 1-noto‘g‘ri, 2-to‘g‘ri, 3-noto‘g‘ri
D) 1-noto‘g‘ri, 2-noto‘g‘ri, 3-to‘g‘ri

